



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|----------------|--|
| 1. | B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. | U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. | D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. | G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. | Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. | N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. | M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. | S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|-----------------|---|
| 1. | M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. | M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. | U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. | F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. | L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. | M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. | Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. | M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. | M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. | F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. | M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor
F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

I SHO'BA. ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTI MASALALARI

KASBIY DISKURSNING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI VA UNDA XUSHMUOMALALIKNING AHAMIYATI

Xolmatova Nozimaxon Iqbol qizi

Farg'ona davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

Email: xolmatovanozimaxon7@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kasbiy diskursning lingvopragmatik xususiyatlari va xushmuomalalik strategiyalarining kommunikativ ahamiyati tahlil qilingan. Professional muloqotning boshqa diskurs turlaridan farqli jihatlari, til birliklarining ijtimoiy va madaniy funksiyalari hamda ish joyidagi muloqotda xushmuomalalikning o'rni ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, maqolada kasbiy diskursni lingvopragmatik yondashuv asosida o'rganish, til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqani chuqurroq anglashga, hamda madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qilishi bayon qilingan.

Kalit so'zlar: kasbiy diskurs, lingvopragmatika, xushmuomalalik strategiyalari, madaniyatlararo kommunikatsiya.

KIRISH. Zamonaviy tilshunoslikda kasbiy diskurs inson faoliyatining ajralmas qismi sifatida til, madaniyat va ijtimoiy kontekst o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beradi. Kasbiy muloqot ish joyidagi ierarxiya, ijtimoiy rol, maqsad va vazifalarning til orqali ifodalanishiga asoslanadi. Shu sababli, kasbiy diskursni o'rganish nafaqat til birliklarini, balki ularning pragmatik va madaniy asoslarini ham tahlil qilishni talab etadi [Gunnarsson, 2009]. Mazkur maqolada kasbiy diskursning lingvopragmatik xususiyatlari, xushmuomalalik strategiyalarining kommunikativ ahamiyati hamda madaniyatlararo farqlarning muloqotga ta'siri ko'rib chiqiladi.

ASOSIY QISM. 1. Kasbiy diskursning mohiyati va boshqa diskurslardan farqi
Kasbiy diskurs (professional discourse) — bu ma'lum bir kasbiy muhitda shakllanadigan, maqsadga yo'naltirilgan, institutsional muloqot shaklidir. Gunnarssonning fikriga ko'ra, kasbiy diskurs ijtimoiy kontekst, ijtimoiy rollar va kommunikativ maqsadlar bilan chambarchas bog'langan [Gunnarsson, 2009]. U akademik, tibbiy, huquqiy yoki biznes sohasida har xil shakllarda namoyon bo'ladi. Drew va Heritage kasbiy muloqotni "institutsional interaction" deb atab, uni kundalik suhbatlardan ajratib ko'rsatadi [Drew va Heritage, 1992]. Ularning ta'kidlashicha, ish joyidagi muloqot ma'lum rollar, ierarxiya va vazifalar bilan cheklanadi. Masalan, rahbar va xodim o'rtasidagi nutq jarayonida kuch masofasi (power distance) tildagi tanlovlarga bevosita ta'sir qiladi. Kasbiy diskursni boshqa diskurs turlaridan farqlovchi jihat – bu uning maqsadga yo'naltirilganligi, normativligi va institutsional tabiatidir. Ya'ni, bunda til nafaqat axborot uzatish, balki tashkilot ichidagi ijtimoiy tartibni saqlash, kelishmovchiliklardan saqlash va ijtimoiy obro'ni boshqarish vositasi sifatida nomoyon bo'ladi.

2. Kasbiy diskursning lingvopragmatik xususiyatlar va xushmuomalalik strategiyalari
Kasbiy diskursning lingvopragmatik tabiati uning kommunikativ strategiyalarida namoyon bo'ladi. Holmes ish joyidagi muloqotda xushmuomalalik (politeness) va ijtimoiy uyg'unlik (solidarity)ning o'zaro muvozanatini tahlil qilib, xodimlarning til orqali professional munosabatlarni boshqarishini ko'rsatgan. [Holmes, 1995, 2000]. Holmesning ta'kidlashicha, rahbarlar xushmuomalalik strategiyalarini ikki yo'nalishda qo'llaydi:

1) Ijobiy strategiyalar – iliqlik, do'stona muhit yaratish (e.g., compliment, inclusive we);
2) Salbiy strategiyalar – oraliq masofani saqlash, rasmiylikni ta'minlash (e.g., modal verbs, indirect requests) [Holmes, 2012].

Locher va Watts "relational work" tushunchasini ilgari surib, xushmuomalalikni ijtimoiy munosabatlarni boshqarish vositasi sifatida talqin qilgan [Locher va Watts, 2005]. Ularning fikricha, xushmuomalalik faqat til birliklarida emas, balki muloqot jarayonining kontekstida,

ya'ni kim, qachon, qayerda gapirayotganida o'z aksini topadi. Demak, xushmuomalalik strategiyalarni foydalanishda kim, qachon, qayerda gapirayotgani ta'sir etadi. Oatey esa xushmuomalalikni "face management" bilan bog'lab, madaniyatlararo kontekstda "face-threatening acts"ni kamaytiruvchi strategiyalarni aniqlagan [Oatey, 2000]. Unga ko'ra, kasbiy muloqotda notiqning madaniy kompetensiyasi muhim o'rin tutadi, chunki noto'g'ri pragmatik signallar kommunikativ nizolarga sabab bo'lishi mumkin.

3. Kasbiy diskursda xushmuomalalikning madaniyatlararo farqlari Chiappini biznes diskursda xushmuomalalikning o'ziga xos madaniy jihatlarini tahlil qilib, ingliz tilidagi kasbiy muloqotda "indirectness" va "softening devices"ning, o'z navbatida, kollektiv madaniyatlarda esa "respect and deference"ning ustunligini ko'rsatadi [Chiappini, 2003]. Oatey shuningdek, madaniyatlararo farqlar tufayli bir xil ifoda turli kontekstlarda turlicha qabul qilinishini ta'kidlaydi. Masalan, ingliz ish muhitida "Could you please..." kabi yumshoq so'rovlar odob belgisi sifatida qaralsa, ayrim madaniyatlarda bu ishonchsizlik sifatida talqin qilinishi mumkin [Oatey, 2000].

Shu nuqtani nazardan, kasbiy diskursni o'rganishda lingvomadaniy komponentni ham e'tiborga olish zarur. Chunki til, kasbiy muloqot jarayonida xulq-atvor va ijtimoiy qadriyatlar uyg'unligining asosiy omillaridan biridir.

XULOSA. Kasbiy diskursni lingvopragmatik nuqtai nazardan tahlil qilish, til birliklarining ijtimoiy va madaniy funksiyalarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Gunnarsson, Holmes, Locher va boshqa olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, kasbiy muloqotda til faqat axborot vositasi emas, balki ijtimoiy tartib, ijtimoiy obro' va madaniy qadriyatlarni ifodalovchi mexanizmdir. Xushmuomalalik strategiyalari esa professional muhitda o'zaro hurmat va ishonchni mustahkamlovchi vosita sifatida alohida o'rin tutadi. Shu sababli, kasbiy diskursni o'rganish nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Chiappini, F. (2003). Business Discourse and Politeness. *Journal of Pragmatics*, 35(12).
2. Drew, P., & Heritage, J. (1992). *Talk at Work: Interaction in Institutional Settings*. Cambridge University Press.
3. Gunnarsson, B. L. (2009). *Professional Discourse*. Continuum
4. Holmes, J. (1995). *Women, Men and Politeness*. Longman.
5. Holmes, J. (2000). Politeness, Power and Provocation: How Humour Functions in the Workplace. *Discourse Studies*, 2(2).
6. Holmes, J. (2012). *Leadership and Communication in the Workplace*. Routledge.
7. Locher, M. A., & Watts, R. J. (2005). Politeness Theory and Relational Work. *Journal of Politeness Research*, 1(1).
8. Oatey, H. (2000). *Culturally Speaking: Managing Rapport through Talk across Cultures*. Continuum.